



THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND THE ARAB REPUBLIC OF EGYPT DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Sevara Ilkhomzhonovna Saidkulova

3 st year doctoral student

Tashkent State Pedagogical Nizami University

e-mail: sevarasaydqulova@gmail.com

Toshkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ahmad Al-Farghani, Mahmoud Zamakhshari, Al-Azhar University of Oriental Studies, Alisher Navoi National Library, Bibliotheca Alexandrina, Tashkent State Agrarian University, Ain Shams University in Egypt.

Abstract: During the years of independence, the establishment of scientific and educational ties between Uzbekistan and Egypt included the creation of a legal framework and the development of cooperation between the public and higher education systems of the two countries.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON VA MISR ARAB RESPUBLIKASI O'RTASIDA TA'LIM SOHASIDAGI ALOQALARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Sevara Ilhomjonovna Saydqulova

3-kurs doktoranti

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika unversiteti

e-mail: sevarasaydqulova@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ahmad Al-Farg'oni, Mahmud Zamakhshari, Al-Azhar, Sharqshunoslik universiteti, Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, Iskandriya

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida O'zbekiston- Misr o'rtasidagi ilm-fan ta'lim sohasidagi aloqalar o'rnatilishi ikki mamlakat Xalq ta'limi tizimi va Oliy ta'lim tizimlari o'rtasida hamkorliklarning huquqiy asoslarini

kutubxonasi, Toshkent davlat Agrar yaratilishi va rivojlanish masalalarini o'z universiteti, Misrning Ayn Shams universiteti. ichiga olgan.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И АРАБСКОЙ РЕСПУБЛИКОЙ ЕГИПЕТ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Севара Илхомжонова Сайдулова

Докторант 3 курса

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

e-mail: sevarasayduloval@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ахмад Аль-Фаргани, Махмуд Замахшари, Аль-Азхар, Университет востоковедения, Национальная библиотека имени Алишера Навои, Александрийская библиотека, Ташкентский государственный аграрный университет, Университет Айн-Шамс в Египте.

Аннотация: В годы независимости установление научно-образовательных связей между Узбекистаном и Египтом включало создание правовой базы и развитие сотрудничества между системами государственного и высшего образования двух стран.

Kirish. Ta'lim sohasi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida davlatlar o'rtasidagi yaqinlashuv va hamkorlikni ta'minlovchi muhim institutsional mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ta'lim orqali amalga oshiriladigan hamkorlik turli madaniyatlar o'rtasida barqaror muloqotni shakllantirib, o'zaro ishonch va anglashuvni mustahkamlashga xizmat qiladi. Xususan, davlatlar o'rtasidagi ta'lim almashinuv dasturlari, xorijiy talabalarni o'qishga jalb etish hamda ularni qabul qiluvchi mamlakatning madaniyati, sivilizatsiyasi va tarixini tizimli ravishda o'rganishga yo'naltirish madaniyatlararo integratsiya jarayonlarini jadallashtiradi.

O'zbekiston Misr o'rtasidagi ilm-fan ta'lim sohasidagi aloqalar uzoq tarixga ega bo'lib, ayniqsa, Ahmad Al-Farg'oniy, Mahmud Zamahshariy singari allomalarning Misrda dunyoviy ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi alohida o'rin egallaydi. Mazkur sohadagi tarixiy aloqalar O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillaridan ikki mamlakat o'rtasida siyosiy, ilmiy hamda madaniy sohalarda o'zaro hamkorlik aloqalari izchil rivojlana boshladi. Xususan, 1992–1997-yillarda O'zbekiston Respublikasi va Misr Arab Respublikasining nufuzli ilmiy-ta'lim muassasalari o'rtasida fan va madaniyat sohasida hamkorlik mustahkamlandi. Jumladan, 1992-yil 8-may kuni Toshkent shahrida Al-Azhar Sharqshunoslik universiteti bilan fan va madaniyat yo'nalishida hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Mazkur hujjat ikki mamlakat o'rtasida ilmiy tajriba

almashuvi, mutaxassislar tayyorlash va ma'naviy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qildi. Shuningdek, 1994-yil 25-noyabrda Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi va Misr Arab Respublikasi Ta'lim vazirligi o'rtasida ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risidagi Bitim imzolaniishi ushbu hamkorlik ikki davlat ta'lim tizimlari o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tardi.

Misr va O'zbekiston o'rtasidagi diniy ma'rifiy sohadagi hamkorligi ham alohida o'rin tutadi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993- yil 28 avgustdagi 431-sonli "Talaba, stajyor va aspirantlarning Misr Arab Respublikasida ta'lim olishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muvofiq Al-Azhar universitetidan O'zbekiston musulmonlar idorasi tasarrufidagi diniy ta'lim muassasalari talabalariga stipendiyalar ajratilishi natijasida 2005 -yil 11 nafar va 2008- yil 8 nafar talaba yoshlar o'z malakasini oshirgan shuningdek, hamkorlik yo'nalishlari professor o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, misrlik professorlarni ma'ruzalar o'qishga taklif etish arab tili, adabiyoti tarixi, madaniyati bo'yicha darsliklar o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 13- avgustdagi 651-sonli "Xorijiy diniy ta'lim muassasalarida ta'lim olish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Din ishlari bo'yicha qo'mita 2021-o'quv yilidan boshlab "Al-Azhar" majmuasida ta'lim olish yuzasidan murojaatlar qo'mita huzurida tashkil etilgan O'zbekiston fuqarolarining xorijiy diniy ta'lim muassasalarida ta'lim olishiga ko'maklashish bo'yicha Maslahat kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi hamda o'qishga qabul qilish qo'mita tavsiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston bo'yicha faqat 40 nafar talaba "Al-Azhar"da rasman ta'lim oldi. Birgina 2021- yilning o'zida Din ishlari bo'yicha qo'mitaga jami 204 nafar talabgor murojat qilib ulardan 203 nafar talabgorga qo'mita tomonidan berilgan tavsiyanoma asosan o'zbekistonlik talaba yoshlari mazkur nufuzli universitetda o'qish imkoniyatini qo'lga kiritdi .

Shuningdek, Misr oliy talim muassasalari arab dunyosida yuqori o'rinlardan joy olgan bo'lib, dunyo tan olgan "QS World University Rankings" , "Times Higher Education" kabi nufuzli xalqaro reytinglarda Ayn Shams, Qohira va Iskandariya universitetlari Misr oliy ta'lim dargohlari ichida yetakchi hisoblanadi.

O'zbekiston va Misr Oliy ta'lim vazirliklari o'rtasida 1992- yilda imzolangan bitimga muvofiq, 2009-yil yanvar oyida Misrning Qohira universitetida tashkil etilgan 10 oylik arab tili kurslariga Toshkent davlat Sharqshunoslik institutidan (4 nafar), Toshkent davlat chet tillar universitetidan (2 nafar), Samarqand chet tillar universiteti 2 nafar talabalar yuborilgan.

Samarqand davlat universiteti va Suvaysh kanali universiteti o'rtasida imzolangan memorandumga muvofiq, SaMDU professori N.Nizomov va Suvaysh kanali Universitetining Organik kimyo fakulteti professori Reda Mahmud Abd El-Al o'zlarining ilmiy jamoalari bilan hamkorlik dasturlarini tuzdilar. Ushbu dastur asosida professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi amalga oshirilishi, hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlarini olib orishni ko'zda tutgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018- yil Misrga amaliy tashrifi davomida qishloq xo'jaligi vazirligi ham ishtirok etib mamlakatlar o'rtasida qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida Toshkent davlat Agrar universiteti va Misrning Ayn Shams universiteti o'rtasida hamkorlikka binoan, o'simlik himoyasi, agronomiya, seleksiya va urug'chilik, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi mexanizatsiyasi yo'nalishlarida qo'shma dasturlar ishlab chiqish va qo'shma fakultetlarni tashkil etish to'g'risida kelishuv imzolandi.

Shuningdek, Misrning Al-Azhar universiteti va O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Islom sivilizatsiya markazi o'rtasida hamkorlik o'rnatishga kelishildi.

O'zbekistonning Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona hamda Misrdagi Iskandariya kutubxonasi o'rtasida 2021-yil yanvar oyida qo'shma hamkorlik bayonnomasi imzolanib, kutubxona boshqaruvi sohasida tajriba almashish maqsadida bir guruh o'zaro tashriflar tashkil etildi. Shu yilning aprel oyida Samarqand shahridagi Ipak Yo'li xalqaro turizm universiteti bilan kelishilgan holda ikki mamlakat turizm kollejlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirishdan tashqari, turizm, qadimiy yodgorliklar va qo'lyozmalarni qayta tiklash sohalarida bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Misr oliy talim muassasalari arab dunyosida yuqori o'rinlardan joy olgan bo'lib, dunyo tan olgan "QS World University Rankings", "Times Higher Education" kabi nufuzli xalqaro reytinglarda Ayn Shams, Qohira va Iskandariya universitetlari Misr oliy ta'lim dargohlari ichida yetakchi hisoblanadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston va Misr o'rtasidagi madaniy hamkorlik tizimida ta'lim va ilm-fan sohasi strategik ahamiyat kasb etadi. Universitetlararo hamkorlikni izchil rivojlantirish, akademik tajriba almashuv dasturlarini kengaytirish, yetakchi olimlar va tadqiqotchilarni ma'ruzalar hamda ilmiy seminarlar uchun jalb etish, shuningdek, qo'shma ilmiy loyihalar va grant dasturlarini amalga oshirish ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy integratsiyani yangi bosqichga olib chiqadi.

Mazkur tashabbuslar nafaqat tarixiy va madaniy rishtalarga tayangan holda ilmiy aloqalarni mustahkamlaydi, balki ularni zamonaviy global ilmiy makon talablari darajasida rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, o‘zaro manfaatli va barqaror ilmiy hamkorlik modeli shakllanib, har ikki davlatning innovatsion salohiyati va intellektual taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda”. “O‘qituvchi” 2021
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158 sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 28 avgustdagi 431-sonli “Talaba, stajyor va aspirantlarning Misr Arab Respublikasida ta’lim olishlarini tashkil etish chora tadbirlari tog‘risida”gi qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 13 avgustdagi 651-sonli “Xorijiy diniy ta’lim muassasalarida ta’lim olish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga
5. O‘zbekiston milli arxiv fondi
6. Rasmiy veb saytlar
7. . <https://www.agro.uz/tag/xalqaro-hamkorlik/>
8. <https://kun.uz/news/2021/08/06/din-ishlari-boyicha-qomita-al-azharda>